

## JADIDCHILIK G‘OYALARI, PEDAGOGIK MEROSSI VA YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTI

N.S.Temirov

*FDU Pedagogika va psixologiya fakulteti “Pedagogika” kafedrasи Pedagogika fanlari doktori, professor*

**Sobirova Muqaddasxon Rustamjon qizi**

(*muqaddassobirova5@gmail.com*)

*FDU Pedagogika va psixologiya fakulteti Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo‘yicha) yo‘nalishi 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Turkistonda chor hukumati mustamlakachiligi siyosati sababli ma’rifatparvarlik, jadidchilik harakati dunyoga keldi. Ma’rifatparvarlarning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, ma’naviy-axloqiy g‘oyalari, fikr-mulohazalari, o’sha davrdagi buyuk jadidchilarining pedagogik meroslari haqida so‘z borgan. O‘zbekiston bugungi kunda “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘yanligi haqida qisqacha ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Jadidchilik, mustaqillik, ma’rifatparvarlik, Turkiston, ma’naviy-axloqiy, “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” tamoyili, g‘oyalari, pedagogik meros, Abdulla Avloniy, taraqqiyot.

Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha jadid - yangi) - XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat. Jadidchilik dastlab, XIX asrning 80-yillarda Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O‘rta Osiyoda tarqaldi.

Turkistonda chor hukumati mustamlakachiligi siyosati sababli ro‘y bergan fojiali voqeahodisalarga qarama-qarshi ravishda ma’rifatparvarlik, jadidchilik harakati dunyoga keldi. Ma’rifatparvarlarning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, ma’naviy-axloqiy g‘oyalari, fikr-mulohazalari o’sha murakkab tarixiy sharoitlarda paydo bo‘ldi va rivojlandi.

Jadidchilikning asosiy g‘oya va maqsadlari quyidagilar hisoblanardi:

- Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish
- Shariatni isloh qilish
- Xalqqa ma’rifat tarqatish
- Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash
- Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament
- Keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish
- Barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo‘sish tuzish.

Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida Mahmudxo‘ja Behbudi, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo‘jaev (Ubaydulla Xo‘jaev), Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov (Toshkent), Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jaev, Usmonxo‘ja

Po'latxo'jaev, Abdulvohid Burhonov, Sadiriddin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho'lpon, Is'hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda (Farg'ona vodiysi), Polvonniyoz hoji Yusupov, Bobooxun Salimov (Xorazm) turardi.

ABDULLA AVLONIY (1878-1934). XX asr boshlarida diniy ruhdagi axloqiy qo'llanmani o'zbek tilida birinchi bo'lib A. Avloniy yaratdi va ta'lism-tarbiya ishlarida uni tadbiq etadi. Abdulla Avloniy arab, fors, rus va azarbajyon tillarini yaxshi bilgan olim edi. Uning qardosh xalqlar va chet el tillarini bilishi pedagogik poetik ijodining taraqqiyoti uchun katta zamin hozirladi. A. Avloniy "Turkiy guluston yoxud axloq" kitobini yaratishda o'zbek va tojik adabiyoti klassiklarining yuqorida nomlari zikr qilingan asarlaridan ijodiy foydalandi, "Turkiy guluston yoxud axloq" kattakichik 64 bobdan iborat bo'lib, har bir bob ta'lism-tarbiya masalasiga bag'ishlanadi va biri ikkinchisini to'ldiradi va takomillashtiradi.

Abdulla Avloniy mehnatkash xalq farzandlarining kelajagiga butun borlig'i bilan ishongan holda, ularning savodini chiqarish, sinfiy ongini o'stirish maqsadida yangi usuli savtiya maktablari uchun darslik va qo'llanmalar ham yaratdi. Ayniqsa, uning «Muallimi avval» (1911), «Muallimi soniy» (1912), «Turkiy Guliston yoxud axloq» (1913), 6 qismdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she'rler» (1909-1917), «Maktab guliston» (1915) va boshqa asarlari o'zbek milliy tarbiyashunosligi tarixida muhim o'rin egallaydi.

Avvalgi davrlarda jadidlar va ularning ijodiga nisbatan noto'g'ri munosabat bildirilgani ham bor gap. Murojaatnomada jadidlar haqida aytilgan fikrlar zamirida mazkur jarayon bardavom bo'lishi, ularning ibratli hayoti va ijodi bilan chuqurroq tanishish, katta tajriba va mahorat maktabi sifatida ko'rish, bizga meros bo'lib qoldirgan asarlari va g'oyalari Yangi O'zbekistonni qurishda xizmat qiladi deb ta'kidlangan.

Mustaqillik yillarida Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Avloniyning ikki jildli, Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Sidqiy Xondayliqiy, Ibrat, Ajziy, So'fizodaning bir jildli, shuningdek, Fayzulla Xo'jayev, Munavvarqori, Polvonniyoz hoji Yusupovning asarlari chop qilindi. Jadidlarning 20 ta mashhur vakili kiritilgan "Unutilmas siymolar", "Jadidchilik harakatining namoyandalari" (Toshkent, 1999) albom-kitobi nashrdan chiqdi. Ularning faoliyati darslik va qo'llanmalarga kiritildi.

1999-yil 16-18-sentabrda Toshkentda Markaziy Osiyo XX asr boshida "Islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash (Jadidchilik, Muxtoriyatchilik, Istiqlolchilik)" mavzuida xalqaro konferensiya o'tkazilib, unda AQSH, Germaniya, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Turkiya, Rossiya, Hindiston va boshqa mamlakatlardan kelgan nufuzli olimlar jadidchilik va istiqlolchilik harakatlari to'g'risida jahon ilm-fanida to'plangan so'nggi xulosalar yuzasidan o'zbekistonlik hamkasblari bilan o'zaro fikr almashdilar. Jadidchilik harakati jahonshumul ahamiyatga ega hodisa ekanligi e'tirof qilindi. Konferensiyada ushbu muammoni tadqiq qiluvchi xalqaro ilmiy kengash tuzildi.

Jadid - yangi degani bo'lsa, demak, Yangi O'zbekiston yangilik va yaxshilik tarafdori bo'lgan jadidlarning orzusi ham edi, deb ta'kidlasak bo'ladi.

Mamlakatimizning mustaqillikka erishishi faqat ijtimoiy-siyosiy jihatdangina emas, balki ma'naviy-ma'rifiy tomondan ham juda katta o'zgarishlarga olib keldi. Mazkur ijobjiy o'zgarishlar tufayli, tariximiz sahifalarida qoralanib kelingan davrlar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar, oqimlar, buyuk allomalarimiz meroslari endilikda hayotimizning barcha sohalarida

qaytadan o‘z o‘rnini egallamoqda, xalqimizning ma’naviy dunyosini boyitish, poklash va rivojlantirish yo‘lida tobora ulkan ahamiyat kasb etib bormoqda.

O‘zbekiston bugungi kunda “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Yangi davr shiddati jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an’analarni qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat hamda sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda kitobxonlik madaniyatini oshirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, yoshlarimizni “Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari” g‘oyasi asosida, begona va yot fikrlar ta’siriga tushib qolishini oldini olishimiz zarur. Yosh avlodni tarbiyalashda asosiy ta’lim-tarbiya o‘chog‘i bu oila va mакtabdir. Yurtimiz milliy taraqiyot manzili sari yangi bosqichga qadam qo‘yar ekan, bugungi kunda Respublikamizdagи tub o‘zgarishlar, faol konstruktiv yangilanishlar jamiyatimiz hayoti, odamlarning ongi, tafakkuri o‘zgarishiga xizmat qilmoqda. Zotan, murakkab va serqirra jarayon bo‘lmish hayot suratlarning tezlashishi har bir kishidan mustaqil fikirlash, mustahkam irodani hamda qat’iy faol fuqorolik pozitsiyasini egallahni talab qilmoqda. Tarixsiz kelajakni qurib bo‘limgani singari, tariximizga o‘z hissalarini qo‘sghan buyuk insonlarning pedagogik merosi va g‘oyalarisiz ta’lim tizimimizda ham yangiliklar yaratib takomillashtira olmaymiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ahmedov Sirojiddin, Rajabov Qahramon (2000-2005). "Jadidchilik". O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 14.12.2020 yildagi 781-son qarori
3. "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari", Yoshlar nashriyot uyi Toshkent-2019-yil, 1-tom 52-bet
4. Temirov Nabijon Soliyevich, Sobirova Muqaddasxon Rustamjon qizi. "Boshlang‘ich sinflarda masalalar ustida ishlash metodikasining nazariy va amaliy asoslari" International Interdisciplinary Scientific Conference "Digitalisation and Sustainability for Scientific Deployment : Economic, Social, and Medical Aspects" www.papers.online-conferences.com 143-147 s
5. M.R.Sobirtsova, D.F.To‘xtasinov. "Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish korrupsiyaga qarshi kurashish muxim omili" Farg‘ona davlat universiteti Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens-nazorat" tizimini boshqarish bo‘limi «Oliy ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy yondashuvlari» xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Farg‘ona-2022-yil 192-195 s
6. N.Muydinova, M.Sobirova, The effectiveness of using games in teaching English for the elementary level learners. Farg‘ona davlat universiteti Chet tillar fakulteti ingliz tili kafedrasи II xalqaro onlayn ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Farg‘ona shahar, 2021-yil, 22-aprel. 368-372 s

7. M.Sobirova, Developing information competence in primary schools. “Current research journal of pedagogics” noyabr 2021. 130-133 s.
8. Abdullayeva B., Aliyev N. Pedagogical Ability In Self-Development Of A Future Primary School Teacher //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 149-153.
9. M.Sobirova. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida tejamkorlikka undovchi masalalar ishlash bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish. Farg‘ona davlat universiteti. Ta’lim jarayonining dolzarb masalalari: muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari (1-chiqish 2-qism) 20-may Farg‘ona 2023-yil 152-155 s
10. D.To‘xtasinov, M.Sobirova, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini matnli masalalar yechishga o‘rgatish, Farg‘ona davlat universiteti. Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limning dolzarb masalalari: muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari I-qism. Farg‘ona 18-noyabr 2022-yil. 231-234 s
11. Sobirova, M. R. qizi. (2023). Boshlang‘ich sinflarda masalalar yechishning pedagogik-psixologik asoslari. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 116–120.
12. Qosimov Begali. Milliy uyg‘onish .- T: Ma’naviyat. 2002.- 5b.
13. Shuhrat Rizo. Ma’rifatparvarlikdan ma’rifatchilikka - Tafakkur.J -1995.-№1. 74-79b
14. Abdulla Avloniy - Tanlangan asarlar.B. Qosimov,-Ma’naviyat, 2006. 1-Jild
15. Abdulla Avloniy - Tanlangan asarlar. Qosimov,-T Ma’naviyat, 2006. 2-Jild
16. Gasprali I. Ovrupa madaniyatiga bir tanqidiy nazar - “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” g., 1996 yil, 10 yanvar soni
17. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati –T., G‘.G‘ulom nomidagi NMIU. 2009. 128-bet.
18. Qosimov Begali. Ismoilbek Gaspirali.-T: G‘.G‘ulom nomidagi Nashriyot matbaa birlashmasi, 1992.- 34 b.
19. Islom ensiklopediya. –T., O‘zME nashriyoti, 2004. –B.
20. Abdulla Avloniy “Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom” –T. 64.